

## Andijon davlat tibbiyot instituti, fakultativ pediatriya va neonatologiya kafedrası



Fakultet pediatriya va neonatologiya  
kafedrası mudiri:

**INAQOVA BARNO BAHODIROVNA**

Tel: +998 91-477-70-33

e-mail: [adti07@umail.uz](mailto:adti07@umail.uz)

### **FAKULTATIV PEDIATRIYA VA NEONATOLOGIYA KAFEDRASİ TARIXI VA FAOLIYATI**

Andijon davlat tibbiyot instituti bolalar kasalliklari kafedrası 1958-yilda dotsent Ilyosov Anvar Ilyosovich tomonidan tashkil qilingan. A.I.Ilyosov 1963-yilgacha kafedrani boshqarib kelgan va bu davrda N.N.Chukanin, E.S. Yesina singari assistentlar ishlaganlar.

Kafedraga N.N.Chukanin 1977-yildan professor lavozimida rahbarlik qilgan. Bu davrda dotsentlardan E.S.Yesina, D.M.Mamajanova, U.A.Arikbaev, Ya.Yu.Illek, Z.S.Sulaymonov, assistentlardan Z.K.Raychani, Sh.I.Valieva, L.Ya.,Salimova, L.Ya.Grigoryans, Z.A.Bezrukova, A.A.Ablyamitov, G.T.Nuritdinova, R.Yu.Knijnik, N.N.Ganieva, M.G.Ganieva, O.S.Toshboev, X.M.Xamrokulov, Sh.K.Xakimov, I.A.Noraliev, A.S.Sirojiddinov, I.D.Barsuk, L.E.Maryash, N.P.Fedenko, K.S.Li, R.T.Sxay, Yu.B.Yagudaev, Annaev S. va boshqalar faoliyat ko'rsatishgan.

1984-1987 yillar davomida kafedra ikkiga bo'linib, fakultet pediatriyasiga dotsent Yesina E.S. rahbarlik qilgan, gospital pediatriyasi kafedrasini esa professor Ya.Yu.Illek boshqarib turdi.

1988-yildan 2000-yilgacha kafedrani professor D.A.Settarova boshqardi.

2000-yildan 2005-yilgacha dotsent Sh.K.Xakimov kafedra mudiri bo'lib ishladi.

2006-yildan kafedralar qo'shilishi munosabati bilan kafedra nomi "Pediatriya, neonatologiya va shoshilinch pediatriya kursi" deb o'zgartirildi va shu davrdan boshlab kafedrani professor O.S.Toshboev boshqarib kelmoqda. Uning rahbarligida hozirgi vaqtda dotsentlardan t.f.d. Sh.K.Xakimov, t.f.n. G.T.Nuritdinova, M.M.Madaminova, A.S.Sirojiddinov, O.A.Egamberdiev, assistentlardan - N.P.Fedenko, R.M.Akbarova, M.X.Arslanova, R.R.Kaipova, M.P.Paziljanova, M.O.Solieva, M.U.Bozorova, Yo.R.Farmonkulova, X.Z.Djuraeva, Sh.X.Atadjanova, Usupova Z.U, Usmanova M.K., Buvaev Sh.B va boshqalar ishlamoqda.

2011-yildan kafedra nomi "Bolalar kasalliklari, neonatologiya va shoshilinch pediatriya" kafedrasini deb o'zgartirildi va shu davrdan boshlab 2013-yilgacha kafedrani professor . Sh.K.Xakimov boshqardi. Uning rahbarligida professor O.S.Toshboev, t.f.d., dotsentlardan t.f.n. G.T.Nuritdinova, A.S.Sirojiddinov, O.A.Egamberdiev, assistentlardan - R.M.Akbarova, M.X.Arslanova, R.R.Kaipova, M.P.Paziljanova, M.O.Solieva, M.U.Bozorova, Yo.R.Farmonkulova, X.Z.Djuraeva, Sh.X.Atadjanova, Usupova Z.U., Usmanova M.K., Buvaev Sh.B va boshqalar ishladilar.

2013-yil apreldan boshlab bolalar kasalliklari, neonatologiya va shoshilinch pediatriya kafedrasini t.f.n. dotsent Inakova B.B. boshqarib kelmoqda. Kafedrada t.f.d. professor O.S.Toshboev, professor . Sh.K.Xakimov, dotsentlardan t.f.n. G.T.Nuritdinova, A.S.Sirojiddinov, O.A.Egamberdiev, assistentlardan - M.P.Paziljanova, M.O.Solieva, M.U.Bozorova, Yo.R.Farmonkulova, X.Z.Djuraeva, Sh.X.Atadjanova, Alimova G.,M., Usupova Z.U., Usmanova M.K., F.T.Abdunazarov. B.N.Inamovlar ishladilar. 2015-yildan kafedra "Fakultativ pediatriya va neonatologiya" kafedrasini deb nomlana boshlandi va hozirgi kunda kafedrasini t.f.n. dotsent Inakova B.B. boshqarmoqda. Kafedrada t.f.d. professor Sh.K.Xakimov, dotsentlardan t.f.n. G.T.Nuritdinova, Shamsutdinova M.A., assistentlardan - M.P.Paziljanova, M.O.Solieva, M.U.Bozorova, Yo.R.Farmonkulova, X.Z.Djuraeva, Sh.X.Atadjanova, Alimova G.,M., Mahmudova B.Sh., Arzibekova U.A. lar ishlamoqdalar

### **Kafedraning ilmiy yo'nalishlari:**

1. Bolalardagi yurak-qon tomir kasalliklarini erta aniqlash, davolash va oldini olish.
2. Homiladorlik va tugish paytida turli kasalliklarga chalingan ayollar chaqaloqlarida adaptatsiya jarayonlarini buzilishlarini erta aniqlash.

3. Turli yoshdagi bolalarning ozuqa moddalari bilan ta'minlanishi hamda alimantar-defitsit holatlarini tashxislash.

### **Kafedraning asosiy ilmiy yutuqlari:**

1. Kafedrada 4 ta fan doktorlari va 20 nafardan ortiq fan nomzodlari tayyorlandi.
2. Chaqaloqlar kasalliklarini erta aniqlash va davolashga oid 50 dan ortiq ilmiy maqolalar va 100 dan ortiq tezislar chop etildi. 1 ta ixtiro ro'yxatga olindi va 1ta davlat granti bajarildi.
3. Neonatologiya va pediatriya sohasi bo'yicha "Yosh olimlar maktabi" tashkil qilindi.
- 4 Hozirgi vaqtda kafedra bolalarda yurak va bosh miya qon tomirlari kasalliklari bo'yicha uslubiy markaz bo'lib hisoblanadi.

Kafedrada iqtidorli talabalar ishtirokida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Olingan ilmiy natijalar talabalar konferensiyalarida va yosh olimlar anjumanlarida muhokama qilinib, tezislari chop etilmoqda (27 ta).

Respublika olimpiadalarida sovrinli o'ringa erishildi (Asqarov Elyor, 503 guruh talabasi).

Kafedrada elektron kutubxona mavjud bo'lib, unda 32 ta darslik va qo'llanmalarning elektron varianti saqlab turilibdi.

### **1. Kafedrada aprobatsiyadan o'tib, himoyaga taqdim qilingan dissertatsiyalar**

№	F.I.SH.	Disertatsiyaning mavzusi	Ilmiy rahbari
	Otajonova SH.	Оптимизация первичной профилактики и коррекция железодефицитной анемий у девочек подростков	D.m.n professor Arziqulov A .SH

## 2. Kafedraning grant va xo'jalik shartnomalari asosida olib borayotgan ishlari .

№	F.I.SH.	Grand ishlari	Xo'jalik shartnomalar (qaysi tashkilot bilan shartnoma tuzilganligi to'liq ko'rsatilsin)	Bajarilgan vaqti, muddati
№IAP05345	Abdurashitov B.E., Atadjanova SH.X., Arziqulov A.SH., Inaqova B.B., Ergashbaeva D.A., Ergasheva Z.A.	Anemiya va yallig'lanishga qarshi ta'sir etish xususiyatiga ega dorivor sirop tayyorlash uchun dorivor o'simliklar kompozitsiyasi.		28.02.2017й.
№DGU 04116	Qo'ldashev K.A.,Axmadjanova G.M.,Inaqova B.B.,Negmatshaeva X.N.,Qo'ldasheva G.K.	Skalirzning zo'rayish xavfini tashxislash va prognozlash uchun dastur		16.12.2017й.

## 3.Kafedrada chop etilgan darslik, monografiya va o'quv qo'llanmalar.

№	F.I.SH.	Darslikni nomi va nashriyot nomi	Monografiy ani nomi va nashriyot nomi	O'quv qo'llanmani nomi va nashriyot nomi	Chop etilgan nashriyot nomi	Nashrga tavsiya etgan vazirlik yoki kengash nomi, sanasi, qaror raqami

1.	Inaqova B.B.  Nuritdi nova  G.T.			Erta yoshdagi bolalar kasalliklari	Andijon	
----	--	--	--	---	---------	--



**Kafedra jamoasi**